

MULOQOT SAN’ATI INSON FAOLIYATINING ENG MUHIM VOSITASI SIFATIDA

Turayeva Dildora Shuhratovna

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti
o’qituvchisi*

E-mail : dildoraturayeva865@mail.com

Tel : +998915426808

Annotatsiya: Ushbu maqolada, muloqot san’atining bugungi kundagi ahamiyati, uning shaxsning har tomonlama shakllanishida tutgan o’rni va ahamiyati yoritib berilgan. Muloqot san’atining barcha tirik jonzodlarga xosligi, faqatgina inson darajasida uning takomillashganligi haqida fikrlar keltirilgan. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqot san’atining tutgan ahamiyati o’rnining beqiyosligi aytib o’tilgan.

Kalit so’zlar: muloqot, san’at, kommunikatsiya, axborot, til, ehtiyoj, ong, nutq, idrok, ehtiyoj, muomala, shaxs, kommunikatsiya, aloqa.

Muloqot san’ati barcha tirik jonzodlarga xos hisoblanib, faqatgina u inson darajasida takomillashadi. Muloqot insonning real hayotida ijtimoiy faoliyatning o’ziga xos shakllari sifatida birgalikda harakat qiluvchi, ammo, ayrim vaziyatda ular bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshiruvchi jarayon hisoblanadi. Muloqotning shakllanishida maqsad to’g’ri qo’yilishi lozim, muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida turli xil vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, jamoada hamda turli tuman guruhlarida. Muloqot inson mavjudligining asosidir.

Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta hisoblanadi. Oddiy narsalarni o’rganish uchun ham taqlid orqali o’zaro muloqotda bo’lish zarurdir. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanib boradi. Indivud bilan shaxs muloqoti o’rtasida juda ham katta farqni ko’rishimiz mumkin. Masalan, go’dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqotini oladigan bo’lsak, ularning o’rtasida katta farq borligini ko’rishimiz mumkin. Ongli shaxsni oladigan bo’lsak, u muloqotni boshlashdan avval miyasida o’ylaydi, so’zlarini rejalashtiradi.

Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o’rni kattadir. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog’chada bolaga kattalar muloqot orqali ta’sir o’tkazadilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun o’quvchiga o’qituvchi muloqot orqali ta’sir etishga harakat qiladi. Shuning uchun, muloqotni ta’sir qilish vositasi deb qarashimiz mumkin.

Muloqot san’ati inson faoliyatining eng muhim vositalaridan biridir. Samarali muloqot qilish qobiliyati – har bir inson egallashi kerak bo’lgan san’at hisoblanadi, ayniqsa, kelajakdagi tibbiyot xodimi kasbiy bilimlar bilan birga bemorlar, ularning qarindoshlari va bir-biri bilan samarali muloqot qilishni o’rganishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, muloqot san'ati boshqaruv faoloyatining eng muhim vositasidir. Rahbar uchun eng qiyin holat suhbatni boshqarib turish. Agar u xodimni tinglay olmasa, suhbatni ham boshqara olmaydi.

Rahbar suhbatni boshlashdan avval xodimning kayfiyatini aniqlashi, oilaviy sharoitini so'rashi, keyin savol bilan murojaat qilishi lozim. Agar suhbatni buyruq berishdan boshlasa suhbat muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Ayrim hollarda xodim bilan rahbar o'rtasida nizo kelib chiqishi mumkin. Sababi rahbar xodimlarga odob bilan murojaat qilmaydi. Shaxsning shakllanishida muloqot san'atining ahamiyati haqida olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan , psixolog B. G. Ananov "Odam bilishning predmeti sifatida" asarida bu masalani atroflicha tahlil qilgan. B. G. Annayev fikricha muloqot ijtimoiy va individual holatdir.

Muloqotning mavjudligi bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy munosabatlarning haqiqati ,ham shaxslararo munosabatlarning haqiqati sifatida kelib chiqadi.Taniqli psixolog A. A. Bodalyev fikricha ,” insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash lozim ”. Shuni ta'kidlash joizki ,muloqot san'atining muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri , fazilatlarining ahamiyati juda kattadir. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa, muloqot jarayoni yaxshi o'tadi. Muloqot san'atini samimiy fazilatga ega bo'lgan insonlardagina yaxshi kechadi deyish mumkin.

Muloqotning shakllanishida maqsadni to'g'ri qo'yishi lozim. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli xil vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada,ta'lim maskanlarida, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdegilar bilan qo'pol muomala qilishga harakat qilishadi va turli xil nizolarga boradi. Har tomonlama yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish uchun yoshlarda muloqot san'atini shakllantirish lozim . Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Hozirda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqishlar toboro ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-biri bilan qiladigan muloqoti kata ahamiyatga ega hisoblanadi.N.P.Ankiyeva fikriga ko'ra ,boshqa odamlar bilan muloqotda har bir shaxs muayyan ijtimoiy rolni egallaydi. Rollar shaxsning tabiatini to'laroq ochib berishi yoki uni niqoblashi mumkin.

Nutq san'ati avvalo ,to'g'ri , adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdan iboratdir. Nutq san'atining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyatlaridan biridir.. Nutqimizni yaxshilash har birimizning muhim vazifalarimizdan biridir . Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jumalarni tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni har doim kuzatib borishimiz kerak.

Muloqot madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohalaridan biridir.. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning muloqot madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi .

Muomala madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas boglik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a‘zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me‘yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi.

АДАБИЁТЛАР:

1. А.В.Петровский. “Умумий психология”, 1992 йил.
2. А.А.Бодалев. А. Моссow. Изд.МГУ. 2010. С.261
3. Парыгин Б. Д. Анатомия общения / Б. Д. Парыгин. — СПб: изд. Михайлова, 1999. — 301 с.
4. Б.Д.Немов. Психологические проблемы общения. Москва. Аст 2015
5. А.Н.Леонтев. “Проблемы развития психики”